



MARKAZIY OSIYO ILM-FAN RIVOJIDA BUYUK AJDODLARIMIZNING O'RNI

Asadov Muhriddin Nuriddin o'g'li
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

“Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o’lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta’lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak” degan fikrlari bugun bobolarimiz ma’naviy merosini o’rgangan holda tabiatga munosabatimizni to’g’ri tashkil etmog’imizga undaydi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev

Buyuk alloma Muhammad Muso al-Xorazmiy (783—850) risolalaridan m birida bunday deb yozadi: „Bilingki, dunyoning ko‘zлari yoshlansa, uning boshiga g‘am, kulfat tushgan bo‘ladi.Odamlar, daryordan mehringizni darig‘ tutmanglar!“, „Dunyoning yoshli ko‘zлari“ deganda Muhammad al-Xorazmiy nimalarni ko‘zda tutgan ekan? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo‘lishini nazarda tutgandir? U,eng avvalo, daryo bilan odamlarning bir-birini tushunishlari va til topishishlari, o‘zaro mehr-muhabbatli bo‘lishlarini nazarda tutgan.[2]

847- yilda Muhammad al-Xorazmiy „Surat al-ard“ („Yerning surati“) degan asarini yozdi.Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit’alar, qutblar, ekvator, gullar, tog‘lar, daryo va dengizlar, ko‘llar, o‘rmonlar va ulardagi o‘simpliklar, hayvonot dunyosi, shuningdek, boshqa tabiiy resurslar — Yerning asosiy boyliklari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu risolada matematika, geologiya, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, shuningdek, dunyo xalqlarining tarixiy-huquqiy bilimlari umumlashtirilgan.c

Ahmad al - Farg‘oniy (taxminan 797, Farg‘ona – 865, Misr) astronomiya, matematika, geografiya va boshqa ilmiy yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatgan o‘zbek qomusiy olimi. Yozma manbalarda qayd etilishicha, Al-Farg‘oniy ilk o‘rta asr falakiyot, riyoziyot va geografiya ilmlari yo‘nalishida bir qancha ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirgan. Uning asosiy astronomik asari – „Kitob al-harakot as-samoviya va javomi‘ ilm an-nujum“ („Samoviy harakatlar va umumiyl ilmi nujum kitobi“). Bu asar „Astronomiya asoslari haqidagi kitob“ nomi bilan ham ma’lum bo‘lib, 1145 va 1175 yillarda Yevropada lotin tiliga tarjima etiladi. Shundan so‘ng Al-Farg‘oniy nomi lotinlashtirilib, „Alfraganus“ shaklida G‘arbda shuhrat topadi. Uning „Astronomiya asoslari haqidagi kitob“ asaridan bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiya fani bo‘yicha asosiy darslik sifatida foydalilanigan, chunki bu kitob zamonasidagi astronomiya haqidagi eng muhim va zarur bo‘lgan bilimlarni o‘z ichiga olgan. Uning geografiyaga oid bo‘limi Yer yuzidagi mamlakatlar va shaharlar haqidagi eng boshlang‘ich va zaruriy bilimlarga bag‘ishlangan bo‘lib, „Yerdagi ma’lum

mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimdagи hodisalar haqida“ deb ataladi. Asarda falakiyat va geografiya ilmlarining asosiy mazmuni, vazifalari va qismlari tushunarli dalillar asosida sodda qilib bayon etiladi. Xususan, Yerning dumaloqligi, bir xil osmon yoritqichlarining turli vaqtida ko‘tarilishi, tutilishi va bu tutilishning har bir joydan turlicha ko‘rinishi, masofalar o‘zgarishi bilan ularning ko‘rinishi o‘zgarishi haqida qimmatli mulohazalar bildiriladi.

Umuman Al-Farg‘oniyning „Astronomiya asoslari haqidagi kitob“ asari o‘rta asr musulmon Sharqi mamlakatlaridagi, so‘ng Ispaniya orqali Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi. Qadimiy yunon ilmi, jumladan, astronomik ilmlar ham birinchi bor arabchadan tarjima qilingan risolalar orqali ma’lum bo‘ldi.

Shuni ta’kidlash joizki Al-Farg‘oniy geografiya va astranomiya fanini ilmiy nazariy jihatdan o‘rganish uchun avlodlarga munosib meros qoldirgan ajdodlarimizdan biridir.

Abu Nasr Forobiy (873 — 950) tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug‘ullangan bo‘lib, „Kalom fi-l xiyz va-l miqdor“ („Hajm va miqdor haqida so‘z“), „Kitob al-mabodi al-insaniya“ („Insoniyatning boshlanishi haqida kitob“), „Kalom fi a’zo al-hayvon“ („Hayvon a’zolari haqida so‘z“) nomli asarlari

bunga dalil bo‘la oladi. Forobiy o‘zining „Kitob fi ixso al-ulum va at-ta’rif“ asarida zamonasidagi ilmlarni har tomonlama o‘rganib, ularni ma’lum tizimga solib, turkumlarga ajratdi, har bir ilm tarmog‘iga ta’rif berishga harakat qildi, tabiatshunoslik ilmiga katta e’tibor berdi. Tabiatshunoslikka oid „Inson a’zolari tuzilishi haqida risola“, „Hayvon a’zolari haqida so‘z“ kabi asarlarida odam va hayvonlar ayrim a’zolarining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida, ularning o‘xhashligi va farqlari keltirilishi bilan birga, asosiy anatomiq-fiziologik tushunchalar berilgan. Ularning ruhiy holatlaridagi xususiyatlari haqida ham to‘xtab o‘tilgan. Odam tanasining tuzilishi va vazifalari haqida so‘z yuritilganda ularning o‘zaro bog‘liqligi va yaxlitligi, ulardagi o‘zgarishlar, ya’ni kasalliklar birinchi navbatda ovqatlanish tartibining buzilishi oqibatida kelib chiqadi, deb tushuntiriladi. Kasallikning oldini olish, sog‘lomlashtirish va boshqa chora-tadbirlarni qo‘llash lozim ekanligi haqida ma’lumotlar keltiriladi. Forobiy tabiiy va inson qo‘li bilan yaratiladigan sun’iy narsalarni ajratgan. U tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratilgan, degan xulosaga keladi. Inson omilining ta’siri katta ekanligini, tabiiy va sun’iy tanlash hamda tabiatga ko‘rsatiladigan boshqa ta’sirlarni atroflicha baholagan.

Abu Rayhon Beruniy (973—1048) koinotdagи hodisalarni taraqqiyot qonunlari bilan, narsa va hodisalarning o‘zaro ta’siri bilan tushuntirishga urinadi. Beruniy tabiatshunos sifatida tabiat haqida quyidagicha fikr yuritadi: „Ekin va nasl qoldirish bilan dunyo to‘lib boraveradi“. Beruniy asarlarida o‘simglik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va xo‘jalikdagi ahamiyati haqida ma’lumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy qarashlari, asosan, „Saydana“, „Mineralogiya“, „Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar“ kabi asarlarida uchraydi. Olim „Qadimgi avlodlardan

qolgan yodgorliklar“asarida Eronning turli tropik o’simliklari va hayvonlarining tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori yil fasllarining almashinuvi bilan bog‘liq ravishda o‘zgarishini misollar bilan tushuntirgan.Jumladan, asarda qish qattiq, sovuq kelsa, qushlarning tog‘dan tekisliklarga tushishi, chumolilarning o‘z uyasiga bekinib olishi va hokazolar ifoda etiladi. Beruniy tirik organizmlarning hayoti Yer tarixi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak deb hisoblaydi. Qumni kovlab, uning orasidan

chig‘anoqni topish mumkin, deydi alloma. Buning sababi shuki, bu qumlar qachonlardir okean tubi bo‘lgan, deb xulosa qiladi u. Beruniy „Saydana“ degan asarida 1116 turdagи dori-darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi turli o’simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 107 tasi esa minerallardan olinadi. Har bir o’simlik, hayvon va minerallarning xossalari, tarqalishi va boshqa xususiyatlari keltirilgan.

Beruniyning o‘zi yoshlik davrlaridan boshlab tabiat shaydosi bo‘lgan. Buning isboti uchun „Saydana“ kitobidagi ma’lumotni keltirish mumkin. Jumladan, olim Rumdan kelgan kishiga o’simlikning meva va urug‘larini ko‘rsatib, uning nomini so‘rab va yozib olganligini hikoya qiladi. Beruniyning „Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar“ va „Hindiston“ degan asarlarida o’simlik va hayvonlarning tuzilishi hamda ularning tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasi haqida ham qiziqarli ma’lumotlar keltiriladi.

Abu Ali ibn Sino (980 — 1037) jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga buyuk hissa qo‘sghan olimlardan biridir. Yirik qomusiy olim sifatida u o‘z davri ilm-fanining deyarli barcha sohalari bilan shug‘ullangan. Turli yozma manbalarda uning 450 dan ortiq asar yozganligi aytildi. Bizgacha esa uning 240 ta asari yetib kelgan. Ibn Sino asarlari orasida uning mashhur „Tib qonunlari“ nomli shoh asari tibbiyot ilmining qomusi hisoblanadi. Olimning juda ko‘p qimmatli fikrlari, jumladan, uning inson sog‘lig‘ini saqlash haqidagi, parhez, gigiyena to‘g‘risidagi xulosa va maslahatlari hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. U barcha yoshdagi kishilar uchun jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishni tavsiya etgan. Ayniqsa, asab kasalligiga mubtalo bo‘lganlarga jismoniy usullar bilan davolanishni maslahat beradi. Ibn Sino tibbiyot tarixida fizioterapiya asoschilaridan biri hisoblanadi. Kishi organizmiga tashqi muhit ta’sirining muhimligini bilgan alloma ayrim kasalliklar suv va havo orqali tarqalishi haqida fikr bayon etgan, ya’ni u kasallikning kelib chiqishi masalasini hal etishga yaqinlashgan edi: „Kasalliklarning ba’zilari yuqumli bo‘ladi. Bular moxov, qo‘tir, chechak, vabo isitmasi, yiringli yara kabi kasalliklardir. Xusan, bular damlarning turar joylari tor va iflos bo‘lganda paydo bo‘ladi va kasal kishining qo‘shnilari shamolning tagida bo‘lganda yuz beradi“, deb xulosa chiqaradi olim.

Abu Ali ibn Sinoning falsafiy va tabiiy-ilmiy qarashlari uning jahonga mashhur asari „Kitob ash-shifo“, ya’ni „Davolash kitobi“ da bayon etilgan. Bu asarda materiya, fazo, vaqt, shakl, harakat, borliq kabi falsafiy tushunchalar, shuningdek, matematika, kimyo, botanika, zoologiya, geologiya, astronomiya, psixologiya kabi fanlar haqida fikrlar bayon etilgan. Ibn Sino o‘z davridagi barcha ilm sohalarining rivojlanishida turli

masalalarini o‘z ichiga oluvchi tabiat falsafasiga katta e’tibor beradi. Ayniqsa, tabobat va u bilan bog‘liq holda anatomiya, pedagogika, psixologiya, farmakologiya, terapiya, jarrohlik, diagnostika, gigiyena kabi ilmlar Ibn Sino ijodida bir qancha yangi kashfiyotlar bilan boyidi va yuqori bosqichga ko‘tarildi. Ibn Sinoning tog‘larning vujudga kelishi, Yer yuzining davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib borishi, zilzila bo‘lishi kabi turli tabiiy jarayonlar haqidagi fikrlari geografiya ilmining rivojlanishiga kata ta’sir qildi.

Ulug’ avliyo va ulamolar yurti Buxoroyi – sharif vatandoshlarimiz hamda xorijdan tashrif buyurgan sayyohlar uchun muqaddas ziyyaratgohdir. Buxoroga qadami yetgan har bir kishi “yetti pir ziyyorati”ni yuragida maqsad qilib qo’yadi, desak xato qilmaymiz. “Silsilai sharif”da keltirilishicha 114 xalifi (shogirdi, muridi, o’rinbosari) bor bo’lgan Sayid Mir Kulol (1288 – 1372 yy) shogirdlari va o’ziga murid tutunganlarni doimo sinovdan o’tkazgan. Tasavvufga oid tadqiqotlar olib borgan olimlardan E.Bertels, A.A.Semyonov, Z.Y.Vohidov, Orif Usmon, N.Yo’ldoshev, Sadriddin Salim Buxoriy asarlari bilan tanishar ekanmiz, Xoja Muhammad Boboiy Samosiy (vafotlari 1354 yil) Xoja Bahovaddin Naqshbandiy – Muhammad ibn Muhammad Jaloliddin Buxoriy (1318 – 1389 yy) tarbiyasini Amir Sayid Kulolga topshirganiga guvoh bo’lamiz. Xoja Muhammad Bobo dedilarki, “ul bizning farzandimizdir va biz ani qabul qildik va as’hab (muridlari) sari boqib debturlarki, bu ul erdurki, bizga ani isi yetib erdi. ... Amir Sayid Kulolga buyurdilarki, farzandim Bahovaddin haqida tarbiyat va shafqatni darig’ tutmag’aysen va senga bixil (avf, kechirish) qilmag’ayman, agar taqsir qilsang. Amir dedikim: “Er bo’lmag’ayman, agar Xoja vasiyatida taqsir (nuqson, xato) qilsam” – degan fikrlarni qayd etadi, tarixchi olim N. Yo’ldoshev.

Xoja Bahovaddin shu tariqa o’z piridan shariat (qonun), tariqat (to’g’ri yo’l) yo’llarini o’rgana boshlaydi. Ustozning shogird va muridlari ko’p sonli bo’lganligini yuqorida bayon qildik. Ba’zi manbalarda ular soni 200 dan ortiqligi qayd etiladi. Sayid Mir Kulol o’z shogirdlarining ilmi, irodasi, qat’iyati va sadoqati kabilarni vaqt – vaqt bilan sinab ko’rgan. Bu sinovning shakl va usullari xilma – xil bo’lib, ular haqidagi ma’lumotlar bizgacha tarixiy voqyelik, rivoyatlar tarzida turli asarlar orqali yetib kelgan. Ayniqsa, Xoja Bahovaddindagi salohiyat, avliyoona karomat va iroda kuchini sezgan ustoz uni bot – bot sinovdan o’tkazgan.

Tariqat ta’limotining katta qismini o’zlashtirgan Xoja Bahovaddin 40 kun bir oyoqda turib chilla o’tiradi. 39 kunda shayton kelib uni vasvasaga solib: “Sen bir kulolga xizmat qilyapsan. U senga hyech qanday yaxshilikni ravo ko’rmaydi, oyog’ingni yerga qo’y”, deb aytadi. Shaytonning vasvasasiga uchingan Bahovaddin 39 kunda oyog’ini yerga qo’yadi va ustozni uyidan bildirmasdan chiqib yo’lga ravona bo’ladi. Yo’lda bir kishining ortidan iti ergashib kelardi, egasi uni tosh otib qaytishga buyurdi. Itning egasi uni qanchalar kesaklar otib haydasa ham, angillab xojasi ortidan qolmaydi. Bahovaddin it egasiga qanchalik vafo qilayotganligini ko’rib qilgan ishidan pushaymon yeydi va ortiga qaytadi. Qarasa oyog’ini yerga qo’yan joyda unga ta’lim va tarbiya



bergan ustozzi Sayid Mir Kulol turibdi. Ustoz shogirdga qarata: “sen oyog’ingni yana bir kun yerga qo’ymaganingda qazogardon bo’lur erding, endi sen balogardon bo’lding, har qanday baloni daf qiladigan kuchga egasan” – deb aytadilar.

Bu bilan Xoja Bahovaddin Balogardon asli ushbu rivoyatdan olinganligiga ishora qilinadi. Xoja Bahovaddin Naqshband ustozdan ta’lim olar ekan, uning imtihonga aylangan sinovlariga xush dar dam (har nafas hushyor turmoq) lik bilan javob qaytaradi.

Sharqshunos, tasavvufshunos olim Orif Usmonning “Ma’naviyat chinorlari” nomli kitobida keltirilishicha Sayid Mir Kulol 114 nafar muridlarining har biriga kunlardan bir kun bozorga borib bittadan xo’roz sotib olishni buyuradi. Sotib olingan xo’rozlarni hech bir zot ko’rmaydigan joyda so’yib kelishni topshiradi. Belgilangan kunda shogirdlarning barchasi o’z xo’rozlarini ko’prik ostida, pana joyda, ovloqda, omborda so’yanligidan ustozni xabardor qiladilar. Xoja Bahovaddin o’ziga tegishli xo’rozni tirik holda olib keladi. Ustozning “Bo’tam siz nega o’z xo’rozingizni tirik holda olib keldingiz? – degan savoliga shogird: men xo’rozni qaerda so’ysam ham olloh (yaratgan) ko’radiku!” – deb javob beradi. Ustoznnig bu sinovidanham shogird muvaffaqiyat bilan o’tadi.

Sayid Mir Kulol o’z shogirdlari bilan yo’lda suhbat qurib ketayotgan kunlardan birida to’satdan to’xtaydilarda, kovushlari bilan yo’lga uzun chiziq chizib, ushbu belgidan kim sakrab o’tsa mening shogirdim emas, deb o’z yo’llarini davom ettiradilar. Shogirdlardan hyech kim ustozzi komildan ajralishni xohlamasdi. Shuning uchun ular chiziq qarshisida lol bo’lib qotib qolishdi. Ular orasida Xoja Bahovaddin Naqshbandiy ham bor edilar. Xoja Bahovaddin bir oz o’ylanib turgandan so’ng, chiziqdan sakrab o’tadilarda, ustozga tezda yetib olib, u kishi bilan yonma – yon keta boshlaydilar. Shunda Sayid Mir Kulol Bahovaddinga murojaat qilib: “Bo’tam, to’g’ri ish qildingiz, bir jonsiz chiziqni deb mendan voz kechmadingiz” – deydilar. Bu sinovdan ham ishonchli o’tgan Xoja Bahovaddin piri oldida sadoqatda benazir, mustahkam iroda va chidam, bardosh egasi bo’lganlar. Sayid Mir Kulol qahraton qish tunlaridan birida o’z kulbai xoslarida orom va uyquda bo’lganlar. Xoja Bahovaddin u kishiga tahorat suvini isitib turganlar. Bir kecha qalin qor tushib uyning ostonasini ham qoplaydi. Sovuq va qorbo’ron bo’lishiga qaramay ustoz ostonasida choponga o’ranib yuragi oldida oftoba suvini iliq saqlab yotgan Xoja Bahovaddin ustini qor qoplaydi. Sayid Mir Kulol uy ostonasida depinib ketsalar, shogirdlari turganini ko’radilar. Shogird ustozga darhol tahorat suvini tutadi.

Tarixiy manbalarda bu ikki ulug’ avliyo haqida bu kabi juda ko’p naql va rivoyatlar saqlanib qolgan. Ularni to’plash va tafakkur chig’irig’idan o’tkazib, tahlil qilish bugungi kunda komil insonni tarbiyalash, yoshlarni zamonaviy bilimlarni egallashi bilan birga turli yod g’oyalarga qarshi tura oladigan immunitet shakllantirishga, kishilarimizda insoniy tuyg’ularni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi degan fikrdamiz.